

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYALANGAN DARSLAR

SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Ziyayev Adxamjon

Qo'qon DPI dotsenti

Nisolmuxammatov Behzod

Matematika va informatika

ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqola tadqiqot maqsadi sifatida boshlang'ich ta'limda integratsiyalangan darslar samaradorligini oshirish omillarini ochib berish va bu boradagi ayrim fikr va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, integratsiya, mustaqil ta'lim, axborot ta'lim muhiti, AKT, savodxonlik, kompetensiyalar, integratsiyalangan darslar.

Hozirda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish zamonaviy ta'linni tashkil etishning dolzarb masalalaridan biridir.[4].

Mazkur maqola tadqiqot maqsadi sifatida boshlang'ich ta'limda integratsiyalangan darslar

Kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qilishi uchun tabiatshunoslik, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofidagi olam obektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjudligi hamda ular bog'liqligini ta'minlash zaruratdir.. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi fanlar integratsiyasini bilishligi bilan bog'liq hisoblanadi. Bu esa ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri ta'limda tabaqalashtirish va individuallashtirish obektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish

maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazardan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi

Yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning taxlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga hos o'tish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

. Avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi - turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari. Savod o'rgatish darslari (o'qish va yozishga o'rgatish).

n

Boshdan integratsiyalangan darslar tashqari o'qish. Bunday darslar tashqari o'qish.

Matematika ham integratsiyalangan kurs-arifmetik materialni o'zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari va shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o'rgatishga tayyorgarlik. Boshdan integratsiyalangan kurs tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari

quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o'qish-rus tili, o'qish-tabiatshunoslik, o'qish-tasviriy san'at, o'qish-musiqqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik- mehnat ta'limi, matematika-mehnat ta'limi, matematika-jismoniy tarbiya. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tibor fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki,

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarni dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsioi masalalarni xal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich - natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirish ularni amalda qo'llaydi.

ida o'qituvchi bir- biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Tekshiruvlar ko'rsatishicha integral yondoshuvchi amalga oshirishga yordam beruvchi usul va

rlar materiallari asosida nutq o‘stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;

Ta’limning ko‘rgazmali, metodlari;

6. Mustaqil ishlar;

7. O‘qish, matematika darslarida og‘zaki rasm chizish;

8. Imo-ishorali ko‘rinishlar (pantomimalar);

9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o‘qish;

10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);

11. O‘lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar.

Ta’limni tabaqalashtirish rad etmaydigan, uni to‘ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o‘zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an’anaviy predmetlarga bo‘lib o‘qitishga nisbatan ko‘proq yordam beradi. Ta’limni integratsiya qilish moxiyati nimadan iborat? Ta’limga bog‘liq «Integratsiya» tushunchasi 2 ta ma’no ega:

1. O‘quvchida atrofdagi olam to‘g‘risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta’lim maqsadi sifatida ko‘riladi).

2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya - ta’lim vositasi)

Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘likligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak[3].

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rnatish lozim. U ta’lim oluvchining bilimini oshirishga, ta’limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta’limining klassik o‘quv predmentlari o‘rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta’lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to‘g‘risida ozgina bilish» lozim bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish kerak bo‘ladi va oxiriga kelib «ozgina narsa to‘g‘risida hammasini

bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limda integratsiyalangan darslar samaradorligini hamda dars o'tish mahoratiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khushnazarova, M. N. (2022). PROBLEMS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1397-1400
2. Mukhtarovna, U. M., & Nodirovna, K. M. (2022). Technologies Of Professional Development Of Students In The System Of Higher Education. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1999-2003.
3. I.TUXTASINOV, N.ISAKULOVA, B.KULMATOV "BOLALAR PEDAGOGIKASI"(boshlang'ich ta'lim pedagogikasi) 2-QISM-2020 yil.
4. 1 Ziyayev, A. I. "NATIONAL AND CULTURAL PECULIARITIES OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGICAL INTENSIFIERS." *International scientific journal* 40.34 (2016): 65-71.
5. Ziyaev, A. I., and Z. J. Aliyeva. "INTEGRATION INTERNET TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES." *Вестник магистратуры* 5-4 (128) (2022): 140-142.
6. Sh, Abduraximov. "ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).
7. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.
8. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.

9. Ziyayev, A. N. "PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF EDUCATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.
10. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "ПРАВИЛА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." *Conferencea* (2023): 143-148.
11. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЫСЛЕЙ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ." *E Conference Zone*. 2023.
12. Ziyayev, A. N. "THE MAIN AREAS OF ACTIVITY OF THE CLASS LEADER IN THE EDUCATION OF THE NECESSARY SKILLS FOR AN INDEPENDENT LIFE IN STUDENTS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 953-956.
13. Ziyayev, A. N. "SOME ISSUES OF THE FORMATION OF SKILLS OF A HEALTHY LIFESTYLE IN STUDENTS IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 851-853.
14. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ГРАЖДАНИНА." *Ученый XXI века* (2017): 78
15. Abdualiyevich Z. M. et al. BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY FAOLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т.
16. Зокиров М. А. ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ //Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 491-197.
17. Zokirov M. SSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

-
18. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 612-618.
 19. Abdualiyevich Z. M. O ‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOIIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 330-333.
 20. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023.
 21. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023.
 22. [PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF DEMOCRATIC VALUES ON THE BASIS OF CIVIL CONCEPTS IN JUNIOR SCHOOL AGE STUDENTS](#). ZA Nisolmuxammatovich, MM Abduxafizovna... - International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
 23. **M. Zokirov**. THE PERCEPTIVE BASIS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY IN PUPILS. **02.07.2022 International Scientific Journal "Science and Innovation". Series B. Volume 1 Issue 3**